



TOPONIMIK TADQIQOTLARNING MAVZU KO'LAMI

Axmatova Intizora Hasan qizi

BuxDU o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududiga oid joy nomlarini yig'ish, aniqlangan materialni mavzu guruhlariga bo'yicha tizimlashtirish, leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini tadqiq etish kabi vazifalar o'z yechimini topgan. Bu tadqiqotlarni o'rganish ko'lami bir necha guruhlariga bo'lingan. Toponimiya sohasi o'rganilgan tadqiqotlar mavzu guruhlariga ajratilgan.

Tayanch tushunchalar: Toponim, etnonim, mikrotoponim, viloyat, tuman toponimlari, oykonimlar, oronimlar

Аннотация: В данной статье решены задачи сбора топонимов, относящихся к территории Узбекистана, систематизации выявленного материала в тематические группы, изучения лексико-семантических и этимологических особенностей. Область данного исследования разделена на несколько групп. Исследования в области топонимики разделены на тематические группы.

Ключевые слова: Топоним, этноним, микротопоним, региональные, районные топонимы, айонимы, оронимы

Abstract: In this article, the tasks of collecting place names related to the territory of Uzbekistan, systematizing the identified material into thematic groups, and studying lexical-semantic and etymological features have been solved. The scope of this study is divided into several groups. The studies in the field of toponymy are divided into thematic groups.

Basic concepts: Toponym, ethnonym, microtoponym, regional, district toponyms, ayonyms, oronyms

Toponimiya sohasining yo'nalishlari bo'yicha qator dissertatsiyalar yaratildiki, ularda O'zbekiston hududiga oid joy nomlarini yig'ish, aniqlangan materialni mavzu guruhlariga bo'yicha tizimlashtirish, leksik-semantik va etimologik xususiyatlarini tadqiq etish kabi vazifalar o'z yechimini topgan.

Bu tadqiqotlarni o'rganish ko'lamiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1-guruhga katta hudud toponimiyasi materialini qamrab olingan ishlar kiradi: S.Qorayevning «Опыт изучения топонимии Узбекистана», O.Begimovning «Janubiy O'zbekiston toponimlarining o'zlashgan qatlami» (1999);

2-guruhga viloyat toponimiyasi tadqiq qilingan ishlarni kiritish mumkin: T.Nafasovning «Топонимы Кашкадарьинской области» (1968), Z.Do'simovning «Топонимы Северного Хорезма» (1970), Sh.Qodirovaning «Микротопонимы Ташкента» (1970), Y.Xo'jamberdiyevning «Историко-этимологическое исследование топонимов Сурхандарьинской области» (1974), S.Naimovning «Ойконимы Бухарской области»



(1984), M.Ramazanovning «Развитие ойконимии Ташкентской области в современный период» (1986), A.Zokirovning «Топонимия Джиззахской области» (1991), B.E.Kilichevning «Buxoro viloyati toponimlarining lingvistik tadqiqi» (2024);

3-guruhga shahar va unga tegishli hududlar toponimiyasi o'rganilgan ishlar kiradi: T.Rahmatovning «Топонимия города Самарканда и его окрестностей» (1973), J.Latipovning «Топонимия города Маргелана и его окрестностей» (1975), N.Oxunovning «Топонимии Кокандской группы районов» (1978), N.Mingboevning «Топонимия Мирзачуля» (1988), T.Enazarovning «Shahrisabz hududi joy nomlarining tarixiy-qiyosiy tadqiqi» (1993), X.Bo'rievning «Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)» (2007);

4-guruhga biror tuman toponimiyasi tadqiq obyekti bo'lgan ishlar kiradi: X.Xolmo'minovning «Микротопонимия Вайсунского района и его окрестностей» (1993), U.Oripovning «Nurota tumani makro- va mikrotoponimiyasining lisoniy tahlili» (2003), A.Aslonovning «Shofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili» (2005);

5-guruhga toponimiyaning biror sohasi tadqiq etilgan ishlar kiradi: N.Begalievning «Samarqand viloyati gidronimlari» (1994), A.Otajonovning «Xorazm etnotoponimlari va ularning lug'aviy asoslari» (1997), A.Turopovning «Samarqand viloyati etnonim va etnotoponimlarining tahlili» (1999), Sh.Temirovning «Samarqand viloyati oronimlarining lisoniy tadqiqi» (2019) kabi dissertatsiyalarini kiritish mumkin.

Sohaga oid doktorlik dissertatsiyalari ham yaratildi. Bular sirasiga lingvistika yo'nalishida Z.Do'simovning «Историко-лингвистический анализ топонимии Хоразма» (1986) hamda geografiya yo'nalishida S.Qorayevning «O'zbekiston oykonimlari» (1998) kabi ishlari kiradi.

Toponimiya muammolari yechimiga qaratilgan alohida nashrlar, monografiyalar ham yaratildiki, ular ham, asosan, yuqorida nomlari zikr etilgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday ishlar qatoriga S.Qorayevning «Топонимика» (T., 1970), «Географик nomlar ma'nosi» (T., 1978), «Топонимика – географик nomlar xakidagi fan» (T., 1980), «Toshkent toponimlari» (T., 1991), «Топонимия Узбекистана» (T., 1991), «O'zbekiston viloyatlari toponimlari» (T., 2005), «Топонимика» (T., 2006); E.Begmatovning «Joy nomlari – ma'naviyat ko'zgusi» (T., 1998); Z.Do'simovning «Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati» (T., 1977; hammuallif X.Egamov), «Xorazm toponimlari» (T., 1985), «Joy nomlarining siri» (Xiva, 2001; hammuallif M.Tillaeva), «Топонимика asoslari» (T., 2002; hammuallif M.Tillaeva); T.Nafasovning «Janubiy O'zbekiston toponimiyasining etnolingvistik analizi» (T., 1985), «O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati» (T., 1988), «Qishlog'ingiz nega shunday atalgan?» (T., 1989), «O'zbek nomnomasi» (Qarshi, 1993), «Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari» (T., 2008; hammuallif Sh.Tursunov), «Qashqadaryo qishloqnomasi. Qashqadaryo viloyati qishloqlari nomining tadqiqi» (T., 2009); B.O'rinboyevning «Samarqand viloyati toponimlarining izohi» (Samarqand, 1997), «Asrlardek barhayot nomlar» (Samarqand, 2003), «Jizzax toponimlarining ta'biri» (Samarqand, 2007); N.Yo'ldoshevning «Buxorodagi ayrim avliyolar tarixi» (Buxoro, 1993);



S.Karimovning «O‘zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida» (T., 2006; hammuallif S.Bo‘riev); K.Nazarovning «Joy nomlarini yig‘ish so‘roqnomasi» (T., 1995; hammuallif T.Enazarov); T.Enazarovning «Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari» (T., 2001), «Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi» (T., 2002), «O‘zbekistondagi ba’zi toponimlarning etimologik talqini» (T., 2004); «Nomshunoslik masalalari» (T., 2010), «Dialektologik amaliyot so‘roqligi» (T., 2018; hammuallif X.Abdullayev), «O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati. Toponimlar tilsimi» (T., 2019; hammualliflar A.Esemuratov, J.Jumanazarov, Y.Qodirova, G.Jumanazarova); L.Karimovanning «O‘zbek tilida toponimlarning o‘rganilishi» (T., 2002); A.Muhammadjonovning «Qadimgi Toshkent» (T., 2002); S.Naimovning «Buxoro oblasti toponimiyasi» (T., 1984), «Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati» (Buxoro, 1997); A.Otajonovanning «Xorazm toponimlari» (T., 1997); N.Oxunovning «Joylar va nomlar» (T., 1986), «Til va joy nomlari» (T., 1988), «Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari» (T., 1989), «Joy nomlari ta’biri» (T., 1994), B.Kilichevning «Quyi Zarafshon toponimlarining qisqacha izohli lug‘ati» (T., 2022, hammuallif S.Nayimov), «Buxoro toponimlarining qisqacha izohli lug‘ati» (B., 2024) kabi asarlari mansubdir.

O‘zbekiston geografiyasi hamda toponimiyasini tadqiq etish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan atoqli olim H.Hasanovning «Geografik nomlar imlosi» (T., 1962), «Geografiya terminlari lug‘ati» (T., 1964), «O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (T., 1965), «Yer tili» (T., 1977), «Sayyoh olimlar» (T., 1981), «Geografik nomlar siri» (T., 1985) asarlari diqqatga loyiqdir.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimiz toponimikasi bo‘yicha tadqiqotlar ma’lum bir izchillikka ega emas. Bajarilgan ishlar alohida olingan hudud yoxud mamlakat (viloyat, shahar, tuman) toponimlarining ma’lum bir guruhini leksik-semantik, etimologik tadqiq etish yuzasidan olib borilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaralsa, toponimlar hudud jihatidan keng yoki tor qamrov bilan tadqiq etiladi. Bu haqda fikr yuritgan E.M.Pospelov toponimik materialni global, lokal, to‘liq, to‘liqsiz kabilarga ajratgan edi⁶². Amalga oshirilgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, yurtimiz va viloyatlarda aniqlangan toponimlar to‘liq tadqiq etilmagan.

Toponimlarni muayyan hududga ko‘ra o‘rganish o‘ziga xos ilmiy-metodik ahamiyatga ega. Bunda hududning toponimiyasi har tomonlama keng va mukammal tadqiq etiladi. Toponimlarni mukammal o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarda hududiy toponimik materiallarni qiyosiy o‘rganish talab etiladi. Bu talab turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, aholi migrastiyasi hamda aholining shevasi va etnik tarkibiga borib taqaladi.

⁶² Пospelов Е. М. Картографирование как метод исследования субстратной топонимики // Вопросы языкознания. – М., 1967. – № 1. – С.80.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qorayev S. Toponimika. O'zbekiston faylasuflari milli jamiyati nashriyoti. T:-2006
2. Raximovna U. N. Tasavvuf ta'limoti va g'arb adabiyoti //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – C. 117-119.
3. Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on “The Fifth Mountain” By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 2.
4. Faybulлаев С. Қоракўл воҳаси тарихий топонимлари атласи. Тошкент, Lesson Press нашриёти, 2021 йил 190 бет
5. С.С.Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. “Дурдона” нашриёти, 2012 йил 272-бет
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.
7. Axmatova I.H. “Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy o'qitishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Nukus 2023-yil 12-13-aprel. “Buxoro janubiy tumanlarida Arabxona toponimining leksik xususiyati” 420-424-betlar
8. Axmatova I.H. Philology and sociology ilmiy jurnal. “Qorako'l tuman toponimlarining fonetik va tarkibiy tuzilishi” 10-16-betlar
9. Axmatova I.H. “Buxoro janubiy tumanlarida “Rabot” asosli toponimlarning semantik xususiyatlari” “Ilm-fan va ta'lim” ilmiy jurnali 8-son 30.06.2023. 100-105 betlar
10. Axmatova I.H. “O'rta Osiyodan Ando'lagacha: Turkiy xaqqlar tili, tarixi, madaniyati va etnografiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2023-yil 19-oktabr. Olot tumani tarkibidagi etnonim asosli toponimlar tahlili. 145-147
11. Axmatova I.H. “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Navoiy-2023. Qorako'l tumani ayrim nekronimlarining semantik xususiyatlari. 389-392
12. Axmatova I.H. “Ilm-fan va ta'lim” ilmiy jurnali 14-soni. 2023-yil 25-dekabr. “Qorako'l tuman toponimlari tarkibidagi rang bildiruvchi so'zlar tahlili” 26-28-betlar
13. Axmatova I.H. International scientific and practical conference: youth, science, education: topical issues, achievements and innovations nomli xalqaro Chexiya konferensiyasi. Analysis of color defining words in the names of Karakol district. 4 bet
14. Поспелов Е. М. Картографирование как метод исследования субстратной топонимики // Вопросы языкознания. – М., 1967. – № 1. – С.80.